



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**KASBIY (IJODIY) IMTIHON DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI**

**“Cholg‘u ijrochiligi”, “Xonandalik”, “Musiqqa nazariyasi
(Solfedjio)” fanlari**

**5111100 - “Musiqqa ta‘limi”
bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishining barcha shakllari uchun**

Toshkent – 2019

Dastur Toshkent davlat pedagogika universiteti O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2019 yil 29 iyundagi 11-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar: Nizomiy nomidagi TDPU "Musiqiy ta'lim" kafedrası mudiri, san.f.n Panjiyev Q.B.

Nizomiy nomidagi TDPU "Musiqiy ta'lim" kafedrası dotsenti Karimova D.A.

Nizomiy nomidagi TDPU "Musiqiy ta'lim" kafedrası katta o'qituvchisi Ibroximjonova G.A.

Taqrizchilar: O'zbekiston davlat konservatoriyasi Musiqiy pedagogika kafedrası dotsent, p.f.n. Axmedov M.

Nizomiy nomidagi TDPU "Musiqiy ta'lim" kafedrası dotsenti Qodirov D.

Dastur Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqilgan.

I. Kirish

5111100 - Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi o'rta maxsus va kasb-hunar kollejlari, bolalar musiqa va san'at maktablari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Musiqa madaniyati" fani dasturi asosida tuzilgan bo'lib, bakalavr darajasini olish uchun O'zbekiston Respublikasi pedagogik oliy ta'lim muassasalariga kiruvchi abituriyentlar uchun mo'ljallangan.

Ushbu dastur "Cholg'u ijrochiligi", "Xonandalik", "Musiqa nazariyasi" (Solfedjio) fanlari asosida abituriyentlarning musiqiy ta'lim sohasida nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha bilim, ko'nikma va mahoratlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

II. Ijodiy imtihonlarning maqsad va vazifalari

5111100 - Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning shu sohada bo'lgan qiziqishi, bilim darajasi va kelajakda musiqa ta'limi sohasi kasbida faoliyat yuritish kompetentsiyalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur ijodiy imtihonlarni o'tkazishning asosiy vazifasi abituriyentlarning boshlang'ich musiqa savodi, biror bir cholg'u asbobda ijro eta olish ko'nicasini, xonandalik mahoratini aniqlash, musiqa asarlari namunalarini bilish, o'zbek va chet el ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, vokal, xor, an'anaviy xonandalik mahoratini, ansambl, orkestr, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, mashhur sozanda va xonandalar ijodiy faoliyatini, musiqiy atama va iboralarni, musiqa janrlari, musiqada zamonaviylik va an'anaviylik tendentsiyalarini, zamonaviy musiqa, milliy estrada musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashni va baholashni nazarda tutadi.

Bunda "Cholg'u ijrochiligi" fanidan biror bir cholg'u asbobda o'zbek yoki chet el musiqa asarlarini ijro eta olish ko'nikmasini egallaganlik darajasi; ijro etayotgan musiqa asarini toza, sof hamda dinamik, temp va ritmik jihatdan aniq va to'g'ri ijro etishi; musiqa cholg'usini chuqur his eta olishi; ritm, garmonik ohanglarni ijro etishda barmoq harakatlarini to'g'ri bajarishi; ijro etayotgan asarning muallifi, cholg'u asbobi turi, nomi, tarixi haqida hamda milliy cholg'ular to'g'risida aniq ma'lumotlarga egaligi;

"Xonandalik" fanidan xonandalik janrlari; ijro etayotgan asarning nomi, muallifi, janri xususida batafsil ma'lumotlarga ega ekanligi; ijroda sof intonatsion qoidalarga to'la amal qilishi, tonallikni ushlay olish ko'nikmasiga egaligi; tajribasi, ovoz, nafas va ularni ishlata olish mahorati, bu borada orttirgan tajribasi; vokal, xor, estrada, an'anaviy xonandalik asarlarini ijro eta olish mahorati, yo'llari, maktabi, tajribalari haqida bilimlarga egaligi; bastakor, kompozitorlar va ularning faoliyati, ular ijodida yuzaga kelgan musiqiy asarlarni bilishi;

Musiqa nazariyasi (solfedjio) fanidan mazkur fanda musiqiy tizim, tovush, nota yozuvi qonun-qoidalari, metr, ritm, temp, lad, tonallik, tonalliklar kvarta-kvinta doirasi, turli xil major va minor gammalar, xalq ladhari, interval, akkord,

alʼteratsiya, xromatizm, tonalliklar pogʻonadoshligi, modulyatsiya va ogʻishma, transpozitsiya, kuy, musiqa bezaklari xususida nazariy bilimlar; bir ovoqli kuylarni, tovushdan va tonallikda major, minor hamda xalq ladlari tovushqatorlarini, xromatik gamma, turli xil interval va akkordlarni yechilishlari bilan yozma ravishda va fortepianoda tuzib sof intonatsiyada kuylash, musiqa elementlarini tinglab aniqlash koʻnikmalar, talab etiladi.

Shular bilan bir qatorda ijodiy imtihonda abituriyentlar, avvalo, musiqa sanʼatining inson hayotida tutgan oʻrni va ahamiyati, yoshlarni aqliy, axloqiy, jismoniy va maʼnaviy kamol topishidagi roli; milliy ong, milliy tafakkur, milliy gʻurur, Vatanni sevish uni ardoqlash hislarini shakllantirishdagi ahamiyati haqida aniq tushunchaga ega boʻlishlari; musiqa sanʼati vositasida milliy gʻoyani oʻquvchi-yoshlar qalbiga singdirib borish yoʻllarini tasavvur qila olishlari; Respublikamizning mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda sanʼat va musiqiy taʼlimni yuksak rivoj topganligi haqida asosli va mantiqli fikr-mulohaza yurita olishlari talab etiladi.

III. Abiturientning bilimiga qoʻyiladigan talablar

Abituriyent cholgʻu ijrochiligi va xonandalik mahoratini egallagan boʻlishi, uni namoyish eta olishi hamda musiqiy-nazariy bilimlarni hamda atama va tushunchalarni bilishi, musiqa elementlarini kuylash va tinglab aniqlab berishi, notaga qarab kuylab berishi lozim.

IV. Ijodiy imtihon oʻtkazish tartibi

Kasbiy ijodiy imtihon uchta fan doirsida oʻtkaziladi, har bir fan boʻyicha abituriyent bilimi va ijodiy mahoratiga alohida ball qoʻyiladi. Toʻplagan ball natijalari umumlashtiriladi va ballar ketma-ketligida qabul komissiyasiga taqdim etiladi.

Cholgʻu ijrochiligi va xonandalik mahorati boʻyicha ijro etilgan asarlar roʻyxati (repertuar), abituriyent tomonidan yozma tarzda imzolangan xolda ijodiy imtihon komissiya raisiga topshiriladi.

Musiqa nazariyasi (solfedjio) fani boʻyicha egallagan nazariy bilimlari yozma ish, diktant, tinglab kuylash, tinglab chalib berish, tinglab aniqlash kabi qator topshiriqlar asosida aniqlanadi.

Kasbiy (ijodiy) kirish imtihonlarning umumiy bali – **189** bali tashkil etadi.

1. Cholgʻu ijrochiligi – **63 ballgacha;**
2. Xonandalik mahorati – **63 ballgacha;**
3. Musiqa nazariyasi (Solfedjio) – **63 ballgacha.**

V. Kasbiy (ijodiy) imtihon mazmuni

V.1. Cholg‘u ijrochiligi

1.1. Baholash mezonlari

Ushbu imtihonda abituriyentdan musiqa asarining mazmuni, shakli, xarakteri va ijroviy murakkabligi bo‘yicha turlicha bo‘lgan uchta musiqa asarini ijro etishi talab etiladi. Shuningdek, qo‘shimcha tarzida O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi kuyini cholib, kuylab berishi, O‘zbekistonning mashhur kompozitorlari va taniqli bastakor-sozandalarini bilishi, mustaqillik yillarida respublikamizda musiqa san‘atini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida o‘z fikrlarini bayon etishi talab etiladi.

№	Cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha ijro etiladigan asar janri va og‘zaki savol-javob mazmuni	Ballar taqsimoti
1.	Yirik shakldagi asar	0 - 15
1a.	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.	0 - 5
2.	Polifoniya / O‘zbek xalq kuylari	0 - 15
2a.	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati	0 - 5
3.	Pyesa, etyud / O‘zbekiston kompozitorlarining asarlari	0 - 10
3a.	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati	0 - 5
4.	Musiqiy cholg‘ular tarixi va ularning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni hamda ahamiyati to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.	0 - 8
Jami		63

Izoh: OTM kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi musiqiy cholg‘ular bilan ta‘milash majburiyatini olmaydi. Abituriyentlar ijro etadigan musiqa cholg‘usini o‘zi bilan birga olib keladi va sozlagan holda ijro etadilar. Kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida kontsertmeyster jo‘rligidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a‘zolari o‘zlarining ixtisoslik sohasidan kelib chiqqan holda abituriyent bilimini baholaydi. Baholar umumlashgan holda e‘lon qilinadi.

1.2. Taxminiy asarlar ro‘yhati

Fortepiano:

1. Yirik shakldagi asarlar – N.Zakirov “Sonata”, F.Nazarov “Kontsert”, M.Klementi, L.Betxoven, Y.Gadn, V.A.Motsart, F.Shubert, M.I.Glinka, A.K.Glazunov va boshqa chet el kompozitorlar sonatina, sonata va kontsertlari.

2. Polifonik asarlar – I.S. Baxning “Frantsuz syuitalari”, ikki va uch ovoqli inventsiyalari, XTK 1- tom prelyudiya va fugalari, shuningdek G.Gendel, R.Shuman, M.I.Glinka, A.K.Glazunov, D.D.Shostakovich, G.Mushelb kabi kompozitorlarning polifonik asarlari.

3. Pьesa – F.Shopen, Y.Brams, F.List, E.Grig, P.I.Chaykovskiy, S.Raxmaninov, M.Ashrafiy “So‘zsiz qo‘shiq”, X.Azimov “Noktyurn”, P.Xalikov “Dutor navolari” va boshqa asarlar, shuningdek K.Cherni, M.Klementi, I.Mosheles, F.Shopen va boshqa kompozitorlar etyudlari.

O‘zbek xalq cholg‘ularida:

1. Yirik shakldagi asarlar – O‘zbekiston va chet el kompozitorlarining sonatina, sonata, kontsert v.b.

2. O‘zbek xalq kuylari – “Dugox”, “Segox”, “Yolgiz”, “Navruzi ajam”, “Rajabiy”, “Kushchinor”, “Tanovar”, “Munajat” va b.

3. O‘zbekiston kompozitorlarining asarlari - F.Vasilbев obrabotkasi “Dutor bayoti”, M.Bafoev “Poema”, F. Nazarov “Poema”si, D.Zakirov “Qo‘shiq va raqs”, “Ko‘rmadim” T.Jalilov, “Otmagay” va boshqalar.

V. 2. Xonandalik

2.1. Baholash mezonlari

Ushbu imtihonda abituriyentdan musiqa asarining mazmuni, shakli, xarakteri va ijroviy murakkabligi bo‘yicha turlicha bo‘lgan uchta musiqa asarini kuylab berishlari talab etiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasini kuylab berishi, O‘zbekistonning mashhur kompozitorlari va taniqli bastakor-sozandalarini bilish va mustaqillik yillarida respublikamiz san‘atni yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida o‘z fikrini bayon etishi talab etiladi.

№	Xonandalik bo‘yicha ijro etiladigan asar janri va og‘zaki savol-javob	Ballar taqsimoti
1.	Maqom, an‘anaviy xonandalik, o‘zbek va chet el kompozitorlarining ariya, romans, estrada qo‘shiqlari, vokal xonandaligi ijrosi, ovoz tembri va sofligi, nutq ravonligi.	0 - 15
1a.	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi va pedagogik mahorati	0 - 5

2	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5, 6, 7 - sinf musiqa madaniyati fani dasturidan o'rin olgan qo'shiqlardan namunalar kuylash, ovoz tembri va sofligi;	0 - 15
2a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari nutqi va pedagogik mahorati	0 - 5
3	O'zbek va chet el xalq qo'shiqlarini kuylash. – “Omon yor”, “Tanovar”, alla, to'y marosim qo'shiqlari, yalla, lapar va h. namunalar kuylash, ovoz tembri va sofligi;	0 - 10
3a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari nutqi va pedagogik qobiliyat	0 - 5
4	Xonandalik tarixi, ularning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va ahamiyati hamda o'zbek va chet el kompozitor (bastakor)lari to'g'risidagi bilimlari, nutqi va pedagogik qobiliyati.	0 - 8
Jami		63

Izoh: Abiturientlar xonandalik fanidan kasbiy (ijodiy) imtihon vaqtida o'zi ixtiyoriy cholg'u asbobida chalib ijro qilishi mumkin. Abiturientlarning iqtidorini va ijodiy qobiliyatini baholash shaffofligini ta'minlanish uchun kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida kontsertmeyster jo'rligidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a'zolari o'zlarining ixtisoslik sohasidan kelib chiqqan holda abiturientr bilimni baholaydi. Baholar umumlashgan holda e'lon qilinadi.

2.2. Taxminiy asarlar ro'yxati

1. O'zbek va chet el kompozitorlar operalaridan ariya, romans, estrada qo'shiqlari.

2. Umumta'lim maktabning 5-, 6-, 7- sinf musiqa madaniyati fani dasturidan o'rin olgan qo'shiqlar.

3. O'zbek va chet el xalq qo'shiqlari – “Omon yor”, “Tanovar”, alla, to'y marosim qo'shiqlari, yalla, lapar va h.

V. 3. Musiqa nazariyasi (solfedjio)

3.1. Baholash mezonlari

Musiqiy tovush va uning xususiyatlari, musiqiy tizim tovushqatori. Musiqaviy soz, temperatsiyalangan soz. Tovushlarning harfiy tuzilmada ifodalanishi. Tovushlar, interval, akkordlar engarmonizmi. Nota yozuvi, nota cho'zimlari va ularga qo'yiladigan tovushlar cho'zimini uzaytiruvchi qo'shimcha belgilar, nota yozuvini qisqartirish belgilari. Metr, Ritm, sinkopa, cho'zimlarning turkumlanishi. Oddiy, Murakkab, Aralash va o'zgaruvchan metrlar va o'lchovlar. Oddiy va tarkibli intervallar. Diatonik va Xromatik intervallar. Intervallarning

engarmonik tengligi. Intervallarning aylanishi. Ohangdosh (konsonans) va noohangdosh (dissonans) intervallar. Alteratsiya. Lad. Tonallik. Turg'un va noturg'un tovushlar hamda ularning yechilishi. Major va minor ladi. Uchtovushlik va ularning aylanmalari. Septakkord va ularning aylanmalari. Og'ishma, modulyatsiya, transpozitsiya kabi mavzulardagi nazariy materiallarni bilish.

Major, minor, xalq ladlari tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko'rsatilgan tonallikda tuzib va kuylab berish. Kalmikov va Fridkin "Birovozli solfedjio" o'quv qo'llanmasidan berilgan kuy misolini notaga qarab kuylash. Interval, akkord, lad tovushqatorlarini tinglab aniqlash.

№	Musiqa nazariyasi (solfedjio) vazifalar turlari	ballar taqsimoti
1.	Nazariy materiallarni bilish.	0 - 13
2.	Major, minor, xalq ladlari tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko'rsatilgan tonallikda tuzish va kuylash	0 - 20
3.	Takt hissalarini qo'l harakatini ko'rsatib kuy misolini notaga qarab kuylash	0 - 15
4.	Tinglab aniqlash	0 - 15
Jami		63

VI. Ijodiy imtihonlar natijalarining baholash mezonlari

VI. 1. Cholg'u ijrochiligi

№	Baholash mezonlari	1-asar	2-asar	3-asar	4-javob
1	Asar ijrosi yorqin va maromiga yetkazilgan, texnik jihatdan mukammal va badiiy jihatdan ifodali. Og'zaki javobi to'laqonli	<i>16-20</i>	<i>16-20</i>	<i>13-15</i>	<i>7-8</i>
2	Asar ijrosi bir oz kam yorqin bo'lib, badiiy jihatdan to'g'ri, ammo texnik jihatdan mukammal bo'lib, ayrim noaniqliklarga ega. Og'zaki javobi to'liqsiz.	<i>11-15</i>	<i>11-15</i>	<i>10-12</i>	<i>5-6</i>
3	Cholg'uda ijro etish ko'nikmalari sust, lekin ijro jarayonida intilish va qiziqishlari mavjudligi. Og'zaki javobi noaniq.	<i>8-10</i>	<i>8-10</i>	<i>7-9</i>	<i>3-4</i>
4	Asar ijrosi yoddan emas, yoki cholg'uda ijro etib bera olmasligi. Og'zaki javobi sust yoki yo'qligi	<i>0-7</i>	<i>0-7</i>	<i>0-6</i>	<i>0-2</i>

VI. 2. Xonandalik

№	Baholash mezon	1-asar	2-asar	3-asar	4-javob
1	Asar ijrosi yorqin va maromiga yetkazilgan, intonatsion aniq, toza va ifodali. Og‘zaki javobi to‘laqonli	<i>16-20</i>	<i>16-20</i>	<i>13-15</i>	<i>7-8</i>
2	Asar ijrosi bir oz kam yorqin bo‘lib, badiiy ijroga yetmaganligi, ayrim noaniq intonatsiyalarning mavjudligi. Og‘zaki javobi to‘liqsiz.	<i>11-15</i>	<i>11-15</i>	<i>10-12</i>	<i>5-6</i>
3	Kuylash ko‘nikmalari sust, ijrosi noaniq (falsh), lekin ijro jarayonida intilish va qiziqishlari mavjudligi. Og‘zaki javobi to‘liqsiz.	<i>8-10</i>	<i>8-10</i>	<i>7-9</i>	<i>3-4</i>
4	Asar ijrosi yoddan yemas, yoki ijro etib bera olmasligi. Og‘zaki javobi sust yoki yo‘qligi.	<i>0-7</i>	<i>0-7</i>	<i>0-6</i>	<i>0-2</i>

VI. 3. Musiqa nazariyasi (solfedjio)

№	Baholash mezon	1-vazifa	2-vazifa	3-vazifa	4-vazifa
1	Vazifaning to‘liq bajarilishi, intonatsiyasi aniq, toza, sof.	<i>11-13</i>	<i>17-20</i>	<i>13-15</i>	<i>13-15</i>
2	Vazifaning ayrim noaniqliklar bilan bajarilishi, intonatsiya ayrim joylarda aniq emasligi (falsh).	<i>8-10</i>	<i>14-16</i>	<i>10-12</i>	<i>10-12</i>
3	Materialni sust bilishi, intonatsiya ayrim joylarda aniq emasligi (falsh), lekin javob berish jarayonida intilish va qiziqishlari mavjudligi.	<i>6-7</i>	<i>11-13</i>	<i>8-9</i>	<i>8-9</i>
4	Materialni bilmasligi, intonatsiya aniq emasligi (falsh)	<i>0-5</i>	<i>0-10</i>	<i>0-7</i>	<i>0-7</i>

Ko‘zi ojiz abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihon natijalarini baholash mezon

Yuqorida ta’kidlanganidek 5111100 - “Musiqa ta’limi” yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladigan ijodiy imtihon dasturiga ko‘ra shu yo‘nalishga oid bo‘lgan cholg‘u asbobida asar ijro etish, qo‘shiq kuylash, musiqa savodxonligi va solfedjio fanlaridan abituriyentlarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini aniqlash talablari kiritilgan.

Har bir ko‘zi ojiz abituriyent ijodiy imtihon yakuni bo‘yicha jami 5 baho to‘plash imkoniga ega. To‘planadigan baho predmetlar bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

a) Cholg‘u ijrochiligi – 5 baho;

- b) Qo'shiq kuylash – 5 baho;
 s) Musiqa savodxonligi – 5 baho;
 d) Solfedjio – 5 baho.

Umumiy 5 bahoning 2 va undan past bahoga baholangan abituriyentlar o'qishga tavsiya etilmaydi.

Ijodiy imtihon predmetlari bo'yicha belgilangan ballar taqsimoti

Baho	Abituriyentning bilim darajasi baholanishida quyidagilar e'tiborga olinadi
5 (a'lo)	Musiqiy ta'lim bo'yicha barcha dasturdagi belgilangan asarlar ifodali, to'liq va mukammal, mahorat bilan ijro etilsa, ijodiy fikrlay olishi, qo'shiq kuylash bo'yicha 2 ta turli xarakterdagi va keng diapazondagi (ovoz kengligi va kuchli namoyish etish uchun) qo'shiq ijro etilishi, Cholg'uda ijro tekis, nafas olish qoidalariga rioya qilib badiiy jihatdan mahorat bilan bajarilsa, berilgan dasturdagi vazifalarni nazariy va amaliy tomondan to'g'ri hamda to'liq bajarilganligi, solfedjioni o'qish va kuylash mahorati yuqori bo'lsa.
4 (yaxshi)	Musiqiy ta'lim bo'yicha barcha dasturdagi belgilangan asarlar ifodali ijro etilsa. Cholg'uda ijro tekis, nafas olish qoidalariga rioya qilishdan chekinsa, badiiy jihatdan mahorat bilan bajarilsa, berilgan dasturdagi vazifalarni nazariy va amaliy tomondan to'g'ri bajarilsa, Solfedjioni o'qish va kuylash mahorati yetarli bo'lsa.
3 (qoniqarli)	Cholg'uda ijro uchun tanlangan asarlar biroz sodda va bir xil turdagi (xarakterdagi) asarlar bo'lsa, ijro badiiy jihatdan nisbatan sayozroq ijro etilsa, ijroda so'zlar yoddan aytib berilmasa, kuy ohangda va badiiylikda xatoliklarga yo'l qo'yilmasa.
2 (qoniqarsiz)	Cholg'uda ijro qilingan asar matnidan chekinish, xatolarga yo'l qo'yilmasa, badiiy tomonidan mazmunini yetkazib ijro eta olmasa, asar ijrosida matndan, sur'atdan chiqib ketish va badiiy ijroda xatolikka yo'l qo'yilmasa va ifodasiz ijro etilsa.

VII. Apellyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Apellyatsiya komissiyasi kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yilishi bilan bir paytda 2019-2020 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari e'lon qilingan kundan boshlab, 24 soat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat etishi shart. Aks holda ko'rsatilgan muddatdan o'tib qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Apellyatsiya komissiyasi abituriyentlar tomonidan bildirilgan og'zaki va yozma murojaatlarga javob beradi.

Abituriyent tomonidan bildirilgan murojaatni ko'rib chiqadi va 24 soat ichida xulosalarni ma'lum qiladi.

**Abituriyent _____ ning
Cholg' u ijrochiligi bo' yicha taqdim etgan cholg' u asarlari bo' yicha to' plagan ballari
qaydnomasi**

	Cholg' u ijrochiligi bo' yicha ijro etiladigan asar janri va og' zaki savol-javob mezonlari	Taqdim etilgan asar va uning ijro holati (yoziladi)	Ball taqsimoti	To' plagan ballari
1.	Yirik shakldagi asar		0 - 15	
1a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to' g' risidagi bilimlari, nutqi (nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.		0 - 5	
2.	Polifoniya / O' zbek xalq kuylari		0 - 15	
2a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to' g' risidagi bilimlari, nutqi (nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati		0 - 5	
3.	Ръеса, etyud / O' zbekiston kompozitorlarining asarlari		0 - 10	
3a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to' g' risidagi bilimlari, nutqi (nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati		0 - 5	
4.	Musiqiy cholg' ular tarixi va ularning ijtimoiy hayotda tutgan o' rni hamda ahamiyati to' g' risidagi bilimlari, nutqi (nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.		0 - 8	
Jami			63	

Ijodiy imtihon komissiyasi:

Abituriyent:

Abituriyent _____ ning
Xonandalik mahorati bo'yicha taqdim etgan asarlari yuzasidan to'plagan ballari
qaydnomasi

	Xonandalik bo'yicha ijro etiladigan asar janri va og'zaki savol-javob mezonlari	Taqdim etilgan asar va uning ijro holati (yoziladi)	Ball taqsimoti	To'plagan bali
1.	Maqom, an'anaviy xonandalik, o'zbek va chet el kompozitorlarining ariya, romans, estrada qo'shiqlari, vokal xonandaligi ijrosi, ovoz tembri va sofligi, nutq ravonligi.		0 - 15	
1a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqi va pedagogik mahorati		0 - 5	
2.	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5, 6, 7- sinf musiqa madaniyati fani dasturidan o'rin olgan qo'shiqlardan namunalar kuylash, ovoz tembri va sofligi;		0 - 15	
2a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari nutqi va pedagogik mahorati		0 - 5	
3.	O'zbek va chet el xalq qo'shiqlarini kuylash. – "Omon yor", "Tanovar", alla, to'y marosim qo'shiqlari, yalla, lapar va h. namunalar kuylash, ovoz tembri va sofligi;		0 - 10	
3a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari nutqi va pedagogik qobiliyat		0 - 5	
4	Xonandalik tarixi, ularning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va ahamiyati hamda o'zbek va chet el kompozitor (bastakor)lari to'g'risidagi bilimlari, nutqi va pedagogik qobiliyati.		0 - 8	
Jami			63	

Ijodiy imtihon komissiyasi:
Abituriyent:

Abituriient _____ ning
Musiqa nazariasi fanidan baholash mezonlari asosida to'plagan ballari
qaydnomasi

№	Musiqa nazariyasi (solfedjio) vazifalar turlari	Topshirqlarga abituriient tomonidan berilgan javoblar (yoziladi)	Ballar taqsimoti	Abituriient to'plagan ballar
1.	Nazariy materiallarni bilish		0 - 13	
2.	Major, minor, xalq ladlari tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko'rsatilgan tonallikda tuzish va kuylash		0 - 20	
3.	Takt hissalarini qo'l harakatini ko'rsatib kuy misolini notaga qarab kuylash		0 - 15	
4.	Tinglab aniqlash		0 - 15	
Jami			63	

Ijodiy imtihon komissiyasi:

Abituriient: